UO‘K 821.512.133

MULLO XOLBEK ANDIJONIY VA UNING “G‘URBATNOMA” DOSTONI

D.Z. Abdullayeva, I.A. Madg‘oziyev

Maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Andijonda yashab ijod etgan shoir va tarixchi Mulla Xolbek Andijoniy hayoti, ijodiy faoliyati, uning “G‘urbatnoma” dostoni qo‘lyozma nusxalari o‘rganilgan. Dostonchilik an’analari asosida yozilgan mazkur asarning tuzilishi, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etilgan. Tarixiy-avtobiografik yo‘nalishda bitilgan dostondagi tarixiy faktlar va badiiy umumlashmalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Andijon adabiy muhiti, Mullo Xolbek Andijoniy ijodi, qo‘lyozma asar, “G‘urbatnoma” asari, dostonchilik an’analari.*

В статье изучены жизнь и творческая деятельность поэта и историка Муллы Холбека Андижани, жившего и творившего в Андижане во второй половине XIX – начале XX века, рукописные копии его дастана «Гурбатнома». Исследованы структура, идейно-художественные особенности данного произведения, написанного на основе эпических традиций. Проанализированы исторические факты и художественные обобщения в дастане, написанном в историко-автобиографическом направлении.

Ключевые слова: *литературная среда Андижана второй половины XIX – начала XX века, творчество Муллы Халбека Андижани, рукописное произведение, произведение “Гурбатнаме”, традиции эпоса.*

Kirish

O‘z yurti ozodligi, ma’rifati uchun kurashgan ziyoli va ma’rifatparvar insonlar nomlari millat tarixi va adabiyoti sahifalarida asrlar davomida muhrlanib qoladiki, ularning sermazmun hayot yo‘li va asarlari avlodlarga millat kelajagini saqlab qolish uchun ibrat vazifasini bajaradi. Chor Rossiyasi tomonidan Turkiston o‘lkasining bosib olinishi davrida ko‘plab ziyoli, ma’rifatparvar kishilar yetishib chiqdi. Ularning vatan ozodligi yo‘lidagi kurashlari, ilgari surgan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari asarlarida muhrlanib qolgan. XIX asr ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan ma’rifatparvar ijodkorlarning hayoti va asarlari mutaxassislar tomonidan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, ayrimlarining nomlari ommalashtirilmagani sabab, ularning hayoti va ijodi bugungi kungacha mukammal o‘rganilgan deb bo‘lmaydi. Shoir va tarixchi Mullo Xolbek Andijoniy ana shunday ijodkorlar jumlasiga kiradi.

Material va metodlar

Mullo Xolbek Andijoniy hayoti va ijodini yoritishda arxiv materiallari, xususan, “G‘urbatnoma” dostonining Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida, Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxalariga, davriy nashrlardagi materiallarga tayanildi. Qo‘yilgan muammoni tadqiq etishda tarixiy-qiyosiy, biografik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Natijalar va muhokama

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Andijonda yashab ijod qilgan Mullo Xolbek ibn Mullo Muhammad Muso Andijoniy shoir va muarrix, o‘z davrining ziyolisi, ma’rifatparvari edi. Undan bizgacha “G‘urbatnoma” nomli yagona asar yetib kelgan.

“G‘urbatnoma” dostoni o‘zida o‘zbek yozma adabiyotidagi dostonchilik an’analarining tadrijiy takomilini aks ettiradi. Asar ilk turkiy doston “Qutadg‘u bilig”, shuningdek, “Hibat ul-haqoyiq”, “Gulistoni bit-turkiy”, “Gulshan ul-asror” kabi qator asarlar yo‘nalishida bitilgan hamda o‘z davri voqealari, ijtimoiy muammolarini tasvirlashi bilan xarakterlidir. Doston tarixiy voqelikning realistik uslubda bitilgani, tarixiy voqea-hodisalar ko‘lamining kengligi, jan-

riy xilmaxillikning kuzatilishi jihatidan o‘ziga xoslik, originallik kasb etadi.

1. Tarixiy manbashunoslik hamda adabiyotshunoslikda shoir va muarrix Mullo Xolbek Andijoniyning “G‘urbatnoma” asari ikkita qo‘lyozma nusxasi ma’lum:

2. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida № R-8816 inventar raqam ostida saqlanuvchi 150 sahifadan iborat to‘la bo‘lmagan qo‘lyozma [1. B. 150].

3. Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida Tr-q 70 tartibli, inventar № 5064 raqam ostida saqlanuvchi, 300 sahifadan iborat qo‘lyozma nusxa [2. B. 300].

Dostonning dastlabki nusxasi O‘zFA ShI kartotekasi va katalogida “Alimqul jangnomasi va G‘urbatnoma” deb qayd etilgan [3. B. 39]. Muallif ismi sharifi “Mullo Xolbek binni Mullo Muso” deb ko‘rsatilgan. Saqlanish raqami R-8816 bo‘lib, o‘lchovi: 16x22 sm. Qatorlar soni 13, nasta’liq yozuvida, o‘zbek tilida bitilgan. Muqovasi mag‘zdan, rangi past sariq, uchta tamg‘aci bor, muqova yoni keyinchalik charm bilan ro‘kash qilingan. Asar jami 75 varoqdan iborat.

Qo‘lyozma nuqsonli bo‘lib, uning boshi va oxiri yo‘qolgan. Dastlabki besh sahifasi va oxiridan bir necha varoq asosdan ajralib ketgan, sahifa chetlari esa yirtilgan. Shuningdek, avvalgi sahifasi yuqori qismiga “AZ KITOBHOJI L.BUZRUKZODA” yozuvli, kvadrat shaklidagi muhr bosilgan. Bu esa qo‘lyozma “L.Buzrukzoda” ismli shaxs xususiy kutubxonasiga tegishli bo‘lganidan dalolat beradi.

Mazkur nusxaning juda ham uringanligi, aksar sahifalardagi matnlar qayta-qayta tahrir qilinib, tuzatishlar kiritilgani uni qoralama nusxa deyishga asos beradi. Sahifa raqamlari keyinroq oddiy qalamda qo‘yib chiqilgan. Qo‘lyozmaning ko‘plab sahifa hoshiyalariga xunukroq xat bilan Abulqosimxon, Jo‘raxon ismlari yozilganki, mazkur bitiklar endigina savodi chiqqan kishi yoxud yosh bolalar tomonidan qayd qilingan deyish mumkin.

Grafologik tekshiruv natijalari aksar hoshiya va glosslar, shuningdek, asardagi vazn bilan bog‘liq saktaliklar, ayrim so‘zlarning noo‘rin qo‘llanganligi yuzasidan kiritilgan tahrirlar Mullo Xolbekning hamqishlog‘i va zamondoshi, sohibi devon shoir, olim hamda mudarris Qori Zokir Muhammadnazar o‘g‘li (1867–1943)ga tegishli ekanligini ko‘rsatadi. Ya’ni qiyos uchun Qori Zokir avtograf devonidagi [4. B. 23] dastxat yuqorida mazkur qo‘lyozmadagi yozuvlar bilan o‘zaro solishtirilganda, har ikkalasi aynan bir shaxsga tegishli ekani aniqlandi. Bu esa asar tamomlangach, muallif uni oqqa ko‘chirishdan avval xolis fikr-mulohazalarini bildirishlari uchun davrining peshqadam olim va fozil kishilari e’tiboriga havola qilganligi, bu sirada ushbu soha bilimdoni bo‘lgan Qori Zokirning tanqidiy nazari va tahrir qalami bilan asar sayqal topib, yanada pishiq-puxta holga kelganligi bilan izohlanadi.

Shu o‘rinda Qori Zokir qo‘lyozma bilan tanishish, uning ayrim o‘rinlariga muallif ijozati ila qalam bilan tahrir qilishi asnosida, ba’zi shaxslar nomiga aniqliklar kiritib ketganligiga guvoh bo‘ldik. Masalan:

Jamoat ahli islomdin, ayo mullo Avaz Muhammad,
Unutma, oqsaqol, sarkor gahi yig‘lab kulushgonlar [1. B. 33]

baytida umumiy tarzda “oqsaqol” va “sarkor” sifatida tilga olingan shaxslarning aslida Xudoyberdi sarkor hamda Boboxon oqsoqol Bozorqo‘rg‘oniylar ekanligi ochiqlanib, izoh berib o‘tiladi.

“G‘urbatnoma” dostonining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida saqlanuvchi mazkur nusxasi haqida dastlab professorlar R.Shamsutdinov, P.Ravshanov, A.Hakimov [5. B. 5; 6. B. 7–25] va Sh.Vohidovlar [7. B. 225–229] ma’lumot berib, asardan ayrim parchalarni e’lon qilganlar. Xususan, R.Shamsutdinov va A.Ishoqovlarning kitobidagi rus zobitlariga qarshi kurashgan amirlashkar Alimqul haqida bayon qilingan o‘rinda Mullo Xolbek Andijoniy haqida quyidagi ma’lumotlar keltiriladi: “Mullo Xolbek ibn Muso Andijoniy bu xalq qahramoni Alimqul jasoratiga bag‘ishlab “Alimqul jangnomasi” dostonini bitgan. Xolbek Qo‘qon xonligida yuz bergan jangu jadallar ishtirokchisi bo‘lgan. U 1873-yilda O‘sh, Jalolobod, Ko‘gartda Ma’murbek boshliq qo‘zg‘olonga qo‘shilganlikda ayblanib, 10 yilga Sibirga badarg‘a etilgan. Doston Sibir surguni davrida yozilgan” [8. B. 118].

Dostonning Andijon viloyat tarixi va madaniyati davlat muzeyi fondida Tr-q 70 tartibli, inventar №5064 raqam ostida saqlanuvchi ikkinchi nusxasi ushbu maqola mualliflaridan biri I.Madg‘oziyev tomonidan aniqlanib [9. B. 96], asarning muallif tomonidan qayta ishlangan to‘la varianti ekani belgilandi. Mazkur doston qo‘lyozmasi 300 sahifa bo‘lib, 22x17 sm o‘lchamga ega rus fabrika qog‘oziga ikki ustundan iborat tarzda qora siyohda jaliy qalam bilan nasta’liq xatida yozilgan. Kitob muqovasi to‘q ko‘k va yirik nuqtalardan iborat mato qoplangan qattiq kartondan, yonlari va burchlari teridan ishlangan va taxminan 1900–1910-yillarda kitobat qilingan. Asarda kotib nomining uchramasligi, ko‘p o‘rinlarda asosiy matnga tuzatishlar kiritilib, ayrim sahifa hoshiyalariga qo‘shimcha baytlarning yozilgani, eng asosiysi, har ikkala qo‘lyozmaning aynan bir xil xatda bitilganligi hech shubhasiz bu muallif dastxati (avtograf) deya

xulosa chiqarishga asos beradi. Qolaversa, ular bir xil o‘lcham va turdagi, ya’ni muhrli rus fabrika qog‘oziga yozilgani, misralarning sahifaga joylashtirilishidagi o‘zaro moslik ham fikrimizni yanada quvvatlaydi.

Doston qo‘lyozmasida uning yozilgan yili maxsus qayd qilinmagan, biroq debocha qismida 1295 (h.y.) sanasi she’riy shaklda mavjud. Bu sana milodiy yil hisobida 1878-yilga to‘g‘ri keladi. Demak, ko‘rsatilgan ushbu sanaga tayanib va dostonda bayon qilingan voqealar mazmunidan kelib chiqib, asar XIX asrning 70-yillari oxiri – XX asr boshlari oralig‘ida yozib tugallangan deb xulosa qilish mumkin. Dostonning umumiy hajmi 7273 misradan iborat.

Asar turli lirik janrlardan tashkil topgan, biroq epik rivoyaning lirik ohang bilan qorishiqligi, voqealar ketma-ketligi va izchilligi, siyosiy-ijtimoiy hodisalarning realistik uslubda bayon qilinishi, epik syujetning tizimli davom etishi jihatidan doston janriga muvofiqligini qayd etish joiz. Dostondagi janrlar tarkibi quyidagicha: g‘azallar soni 19 ta bo‘lib, ular 24, 9, 11, 20, 13, 45, 40, 45, 14, 15, 14, 14, 64, 84, 40, 46, 52, 32, 23 baytli; murabba’ 2 ta – 25 va 11 banddan iborat; muxammas 8 ta – 39, 14, 20, 14, 24, 22, 28, 20 bandli; musaddas 3 ta – 13, 34, 8 banddan iborat.

Doston an’anaviy tarzda basmala, so‘ngra Allohga hamd bilan boshlangan bo‘lib, olamlarning yaratilishi, Odam Ato va Momo Havo avlodlarining bunyodga kelishi bayoni, Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.) vasfi, to‘rt chahoriyor nomlari qayd etiladi.

Dastlabki hamd g‘azal islomiy va so‘fiy dunyoqarashida Allohning qudrati, payg‘ambarlarning maqomi va haqiqiy yo‘lboshchi sifatida qabul qilingan shaxslarni ulug‘lash haqida bo‘lib, har bir baytda Allohning va uning payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) ning buyukligi ta’kidlanadi, ularga hamdu sano aytiladi.

Ilk baytlar Allohning cheksiz qudrati va hikmatini ulug‘lash bilan boshlanadi. U ikki dunyoga ham o‘z qodirligi va qudratini ochiq namoyon etgan zotdir. Barcha narsalar uning “Bo‘l” degan amri bilan vujudga kelgan. Alloh mulk egasi va yagona yaratuvchidir:

Hamd behad hazrati Haq dargahina beshumor,
Ayladi qodirlig‘in ikki jahona oshkor.
Go‘yiyo bir ganji maxfiy yanglig‘ ul Hayyi qadim,
“Bo‘l” degach, bo‘lg‘an muyassar olami mujda hazor [2. B. 2].

Na’t qismida Muhammad (s.a.v.) payg‘ambarlarning sardaftari va oxirgisi sifatida alohida ulug‘lanadi. G‘azalda uning shafe’lik maqomi ham tilga olinadi, ya’ni qiyomat kunida ummatlari uchun shafoatchi bo‘lishi qayd etiladi. Xulafo roshidinlar islom dinining yetakchilari sifatida ulug‘lanadi. Chahoriyorlarning har biriga xos xususiyatlar – Abu Bakrning siddiqligi, Umarning odilligi, Usmonning hayosi va Alining qahramonligi ta’kidlanadi. Pirovardida asar muallifi o‘zining gunohkor ekanligini tan oladi, Allohdan mag‘firat va yordam so‘raydi. U qalb darvozasini ochish va baxtga yetishish uchun duo qiladi.

Ushbu g‘azalda islomiy tasavvuf va pok e’tiqod ifodalangan bo‘lib, maqta’da muallif nomi quyidagicha qayd etilgan:

Muddaoi tab’ima kelgach muvofiq bul fikr,
Mullo Xolbek ibn Muso buyla qildim ixtiyor [2. B. 4].

Shundan so‘ng doston Mullo Xolbekning hasbi hol mazmunidagi misralari bilan davom etadi. Uning Rusiya elida, soldatlar qo‘lida qolgani, ya’ni hibsda ekanligi (“Asirman Rusiya kuffor elinda, Qolibman shabu ro‘z sallot qo‘linda”), bu voqea nahang yili (baliq muchali), qishda, “ming ikki yuz to‘qson beshda” (1295 h.y., ya’ni milodiy 1878-yilda) ro‘y bergani, Rusiyaning Farg‘onani olgani hamda eldan islom dinining badarg‘a qilinganini nadomat bilan yozadi. Demak, Mullo Xolbek Andijoniyning mazkur dostoni uning 10 yillik surgundaligi vaqtida bitilgan.

Doston “Tahdidi qalamravi shohi Farg‘ona”, “Jangnomayi amirlashkar Alimqul”, “Tazkirayi ulamoiyon va zulehtirom fi baldayi Andijon” nomli qismlardan iborat. Asar an’anaviy hamd, na’tdan so‘ng “Tahdidi qalamravi shohi Farg‘ona” sarlavhali bob bilan davom etadi. Muallif Farg‘onaning ta’rif-tavsifini bayon qilar ekan, mamlakatning Rusiya bosqinidan avvalgi go‘zal manzaralari, boyliklari, farovon hayotini tasvirlaydi. So‘ngra o‘z asari Qo‘qon shohlari tarixini bayon qilishini so‘zlab, uni “muxtasar “Shohnoma”” bo‘lsin, deb umid qilib, amirlashkar Alimqul kurashlari haqidagi “Jangnoma” bo‘lishini va oxirida asarning “G‘urbatnoma” ekanini ta’kidlaydi:

Bu so‘zdin bo‘ldi ma’lum ko‘hnadur bil,
Etib taftish u shohlar ta’rixin qil.
Ki mo‘jaz, muxtasar “Shohnoma” bo‘lsun,
Alimqul ishlari “Jangnoma” bo‘lsun.
Pirovardini “G‘urbatnoma” ayla,
Gahi yig‘lab, gahi hangoma ayla [2. B. 12].

Farg‘ona viloyatining xushmanzara, go‘zal tabiati, o‘tmishi haqida so‘z yuritiladi. Muallifning yozishicha, Qozon shahrida Shahobiddin Marjoniy degan tarixchi olim bo‘lib, uning “Mustafad al-axbor” asari bilan tanishadi. Muallif Shahobiddin Marjoniyning asli Qozonda tug‘ilgani, 32 yil Buxoroda yashab, Toshkent va Farg‘onada ham bo‘lgani haqida yozar ekan, unga davrning allomasi, “qalbi anvar”, “kubriyati ah-

mar”, “himmat bobida arslon”, “tabarruk yurtda obi zamzam”, “musannifi zamon”, “komil tarixchi” tarzida juda samimiy ta’rif-tavsiflarni beradi. Zikr etilgan asar nasrda bo‘lib, Mullo Xolbek shu yo‘nalishda, lekin nazmda doston bitishini ta’kidlaydi. So‘ngra “Oltin beshik” voqeasi bayon qilinadi. Farg‘ona davlati tarixda Boburiya deb atalganini aytib o‘tadi:

Bu Farg‘on davlatin Bobiriya nom,
Yozibdurlar tavorixga u hangom.
Qo‘yub boshqalarin man, ibn Muso,
Bobirxon ta’rixin ayladim insho [2. B. 16].

Zahiriddin Muhammad Bobur shohning Amir Temurdan boshlab ajdodi sanab o‘tiladi hamda uning to‘rtinchi avlod ekani aytiladi. Boburning shoh bo‘lgani, uni Xoja Ahror valiy qo‘llagani, biroq raqiblari tomonidan quvilgani, o‘sha qochqin vaqtida bir daraxtda “oltun beshik kimxob yopilg‘an” turgani bayon qilinadi. Beshikdagi bola Zahiriddin Muhammad Boburning o‘g‘li deb gumon qilinadi. Shuni kuzatish mumkinki, Qo‘qon xonligi tarixnavisligida mazkur “Oltin beshik” haqidagi rivoyatni tazkira, tarixnavislik kitoblarida keltirish an’anaga aylangan [10. B. 11–12; 11. B. 84–91]. Bu voqea Qo‘qon xonlari shajarasining qayerdan boshlanishini dalillovchi asos sifatida ko‘rsatiladi. Mullo Xolbek Andijoniy ham ayni shu voqealarni nazmda ifodalagan. Ana shu “Oltin beshik” avlodidan xon chiqqani aytilib, ularning avlodlari sanab o‘tiladi. Bunda “Oltin beshik” voqeasidan keyin to‘qqizta shajara uzvlari borligi va ularning nomlari keltiriladi: shoh Shohrux ibn Rustam, Rustam ibn Hojibekbiy ibni Sh(o)ahmad, Ibn Chamosh ibn Osil, Ibn Qosim ibn Muhammad Amin, Ibn Xudoyor ibn Olik kabilar.

Dostonda Shohruhxon, Abdurahmon, Abdukarimxon, uning o‘g‘li Abdurahmon, Erdonaxon, Bobobekxon, Muhammad Aminxon, Norbo‘taxon, Hojibek, Olimxonlarning Qo‘qon taxtida o‘tirib, hukmronlik qilganlari bayoni beriladi. Olimxonning raiyat, fuqaroga zolim bo‘lgani, zamona shayxini imtihon qilgani, shayx va olimlar ozorlangani, mashoyixlar va ulamolarni tahqirlab, ozor bergani tasvirlanadi. O‘z inisi Rustambekni o‘ldirib, Toshkentga ketganda Olimxon o‘ldirilib, taxtga Amir Umarxon o‘tiradi. Muallif Amir Umarxonni ijobiy sifatlar bilan ta’riflaydi. Uning in’om-ehson egasi ekani, fozil va donishmand kishilarni saroyga jamlagani, shoirlar ahliga monelik qilmay, balki o‘zi ham she’r-baytga mohir ekani, qasida va baytlar bitishi aytiladi. Xususan, Amir Umarxonning ulamolar bilan kengashib ish yuritishi, umarolar bilan ovga chiqishi, shariat ravnaq topgani, raiyat yaxshi kun kechirgani haqida to‘xtalib, bir ovda Amir Umarxonning yaralangani va vafot etgani bayon qilinadi. Shundan so‘ng Amir Umarxonning o‘g‘li Muhammad Alixon hukmronligi davri tasviri beriladi. Muhammad Alixonning kayf-safoga berilgani, oqibatda Amir Nasrulloning Qo‘qonga bostirib kelishi voqealari tasvirlanadi. So‘ngra Ibrohim xayol, keyin Sheralixon hukmronligi voqealari qalamga olinadi. Qo‘qonning so‘nggi xoni Xudoyorxon va uning davrida ro‘y bergan voqea-hodisalar ham bayon qilinadi. Xudoyorxon va Mallaxon o‘rtasidagi urush-kurashlar, Mallaxonning o‘ldirilishi, Shohmurodning taxtga chiqishi, Alimqulning Andijon hokimi bo‘lishi voqealari birma-bir tasvirlanadi. Dostonda Shohmurod va Alimqulning o‘lkadagi tang holat haqida suhbati dialog shaklida berilganki, bu voqealar shiddati va ziddiyatlarning tarangligini yanada yorqin ko‘rsatadi:

Dedi xon: amakimni o‘ldurubon,
Mani zo‘rliq bilan ayladilar xon...
...Turub ta’zim etib o‘lturdi yona,
Dedi: zo‘rliq bul ish yo‘q hech bahona.
Bularga lozim ermas shohi odil,
Saodatmand akobirlar emas, bil.
...Dedi: “Ori, Alimqul, bul so‘zung rost,
Manam topshurdum ishni sengadur xos.
Amakimning qasosin olmasang hech,
Iloj yo‘q, dilda armon pech-darpech” [2. B. 46].

Andijon hokimi bo‘lgan amirlashkar Alimqul haqida doston muallifi ijobiy ta’riflarni keltiradi:

Mulla Alimqul nomdor mardi daler,
Sodiqul-va’d, ko‘hi paykar, narra sher.
G‘ayratu himmatda hech monandi yo‘q,
O‘tti ko‘p ishlar boshidin cho‘q-cho‘q.
Ketti ovoza Yamandin to Yasar,
Qildi taslim rus islom sarbasar.
Qilsang orzu izla “G‘urbatnoma”din,
Voqif erdim sarguzasht hangomadin [2. B. 51].

Amirlashkar Alimqulning shiddatli janglari va uning vafoti tasviridan keyin “G‘azali musibat Amir askar shahid” sarlavhasi ostida “Alvido” radifli marsiya keltiriladi. Marsiya askar tilidan berilgan, g‘azal shaklida bo‘lib, 11 baytdan iborat.

Mullo Xolbekning surgun qilinishi voqealari bayonidan so‘ng esa “Naylayin” radifli murabbasi keltirilgan. Ta’kidlash o‘rinliki, davr adabiyotida Qo‘qon xonligidagi ayanchli siyosiy holatlar haqida bir qator shoirlar, xususan, Nodim Namangoniy, Usmonxo‘ja Zoriy tomonidan ayni shu radifda bitilgan muxammas, musaddaslar bo‘lib, ularda lirik qahramonning ichki kechinmalari, davr voqeligidan noroziligi ham aks ettirilgan. Mullo Xolbekning mazkur murabbasi-

da asirlikning azob-uqubatli, mashaqqatli yillari qalamga olinadi va ta'sirli misralarda bayon qilinadi:

O‘zbekiston edi esiz Farg‘ona,
Ajam arzinda bir jannat nishona,
Qay bir vasfin deyin sig‘mas bayona,
Asirlikda boshim qotti, naylayin? [2. B. 109]

Dostonda lirik qahramonning his-tuyg‘u, kechinmalari turli janrlarda ifodalanishi kuzatilsa, janglar, kurashlar, ziddiyatli to‘qnashuvlar tasviri masnaviy shaklini talab qiladi. Shuningdek, doston muallifi Qo‘qon hibsxonasida ro‘y bergan qiziq bir voqeani bayon qiladi:

Bir ish qil, kelturub bizga fichoq ber,
Ishorat birla mundog‘ so‘zni xo‘b der.
Alar qovun dumin o‘yub olurmish,
Fichoqni ul qovun ichra solurmish.
Bilinmasdek qilib so‘ng berkitarmish,
Bu yanglig‘ hiylayi tadbir etarmish [2. B. 126].

Mahbuslarga qovun ichiga pichoq solib kirgizadilar. Nazoratchilar buni payqamay qolishadi. Qovun ichiga yashirilgan pichoqlar 18 ta bo‘lib, ularni olgan mahbuslar qo‘riqchi soldatlarga hujum qilishib, sakkiztasini o‘ldiradilar va ozodlikka chiqadilar.

Tarixshunos olim Shodmon Vohidov Mullo Xolbek Andijoniyning mazkur dostoni haqida to‘xtalib, uning shoirlik mahoratiga ham alohida urg‘u beradi: “Mullo Xolbekning shoirlik mahoratidan asar oxiridan joy olgan g‘azallar, muxammas, marsiya va ta'rixlar ham dalolat beradi. Bu manzumalar ham tarjimai hol bo‘lib, “G‘urbatnoma”ning tarkibiga kirgan va u bilan yagona bir asarni tashkil etadi. “Ayladi”, “Aylamish”, “Qayrilmisham”, “Bo‘ladur deb”, “Niyatim” va boshqa radifdagi manzumalari yuqori darajadagi hissiyotlarga berilgan holda yaratilgan. Bu she'riy parchalarda ham muallifning shaxsiy hayotiga tegishli ma'lumotlarni topamiz. Mullo Xolbek ukasi va qizi o‘lganligini, surgundagi ahvolini, kundalik hayoti, rus ma'muriyatining turkistonlik asirlar bilan qilgan munosabatlari va boshqa ijtimoiy-siyosiy masalalarni yoritadi. Masalan, Mullo Xolbek ma'lumotiga qaraganda, asirlarga kuniga chorak qadoq choy, 2 grivenga mos qand va non berilar ekan” [7. B. 229].

Mullo Xolbekning ayrim g‘azal va muxammaslari o‘sha davr adabiyotida urf bo‘lgan mavzularda yozilganini kuzatish mumkin. Masalan, Xudoyorxonning taxtdan ketishi munosabati bilan davr shoirlari Zavqiy, Furqat, Kotib, Muhayyir, Zoriy tomonidan g‘azal, muxammas, musaddaslar yozilgan edi. Mullo Xolbekda ayni shu mazmundagi g‘azal va musaddas uchraydi. G‘azal matla'i:

Do‘stlar, shoxi shajardek zo‘r bilan qayrilmisham,
Ya'ni dorussaltana Farg‘onadin ayrilmisham
[2. B. 136].

Asirlikdagi voqealar bayonidan doston muallifining ko‘p azob-uqubat chekkanligi, asirlarni Rossiyaning turli o‘lka va shaharlariga ko‘chirib turishgani anglashiladi. Shoir hibsdalik vaqtida otasi va ukasi vafot etishidan juda aziyat chekadi hamda qamoqni “zindon”, “bayt ul-ahzon” (“mahzunlik, g‘am uyi”) deb ataydi:

Bu zindon baytul-ahzon ichra mushtoq,
Bo‘lubon ertayi kech toqatim toq.
Debon: ey nur ayno, munda man zor,
Otam ojizni holi bo‘ldi dushvor.
Yoshi saksondin oshqan vaqtda aknun,
Egib qaddin bu motam ayladi nun.
Ey marhumi jigarband, bul nechuk hol,
Qolib g‘urbatdan man oshifta ahvol?
Yilon chaqqan kabi har kun sabo kech,
Simob yanglig‘ qarorim yo‘q edi hech [2. B. 147].

Mullo Xolbekning otasi 80 yoshda, Ahmad ismli ukasi 24 yoshida vafot etgani bayon qilinadi, ularga bag‘ishlangan marsiya-muxammaslarda juda mahzun kechinmalar ifoda etilgan.

Dostonda shoir inson hayotda qancha azob-uqubat ko‘rsa-da, faqat yaxshi nom qoldirishi kerakligini ta'kidlaydi, shundan kelib chiqib pand-nasihat, o‘git mazmuni misralarga singdirilgan:

Tilingda doimo Haq zikri bo‘lsun,
Dilingda oxiratni fikri bo‘lsun.
Ki sandin qoldi yaxshi nishona,
Nakim qilsa duo ahli zamona.
Birodarlar, madrasa, ko‘pruk, rabotlar
Qilib o‘tmish badavlat yaxshi zotlar.
Birov anhor chiqorib qildi qishloq,
Yurub qirq yil na qilding, ortinga boq? [2. B. 153]

Asar voqealari bayonida turli tasviriy vositalar qo‘llangan. Jumladan, “yo‘lni karvonboshi ko‘radi” matali “*Masal bor “yo‘l ko‘ran karvonboshi” deb, Bu g‘urbat ko‘chasin ko‘rgan degay eb”* tarzida keltiriladi. Asirlarni Orenburgdan Voronejga poezdda ko‘chirish voqeasi tasvirida shoir poyezdni “uchar qush”ga o‘xshatadi, temir yo‘l shpallarini “cho‘yan yo‘l”, vagonlarni “g‘altak ustidagi uy”ga tashbeh etadi:

Uchar qushdek ketib g‘aldirlamas ul,
Hunarmandlar yasab, rostlab cho‘yan yo‘l.
Matashqan bir-birina qirqi bir to‘b,
U har uy olti g‘altak ustida xo‘b.

Qo‘yulg‘an bir emas, har yo‘lda ham bor,
Na hojat boshqa so‘z biloxiri kor [2. B. 191]

Mullo Xolbek surgundalik vaqtida yuqori idoralarga bir necha bor xat-ariza yozadi, oxiri uni ozod qiladilar, shoir o‘z yurtiga qaytadi. Dostonning tazkira qismida Qo‘qon va Andijonda yashab o‘tgan va hayot bo‘lgan tarixiy shaxslar, ulug‘ kishilar nomlari zikr qilinadi.

Xulosa

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Turkiston hayoti murakkab va tahlikali kechib, g‘oyat ziddiyatli siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlarga boy bo‘ldi. Chor Rossiyasi ekspluatatsiyasi va mahalliy nizolarga qarshi chiqqan ziyoli, ma’rifatparvar shaxslar o‘z kurashlari va asarlaridagi ozodlik g‘oyalari orqali xalqni o‘z ortidan ergashtirdilar. Mullo Xolbek Andijoniy ham o‘z yurtining ozodligi va ma’rifati yo‘lida jonbozlik ko‘rsatgan, amirlashkar Alimqul bilan birga xalq erki uchun kurashgan kishilardan biri edi. Uning bizgacha etib kelgan “G‘urbatnoma” asari tarixiy-avtobiografik doston bo‘lib, muallif o‘zi ko‘rgan, boshidan kechirgan chorizm taloto‘plari, bosqin fojealarini realistik uslubda tasvirlaydi. Mazkur asar o‘zbek adabiyoti tarixidagi dostonchilik an’analarini davom ettirgan. “G‘urbatnoma” dostoni mazmun qamrovi kengligi, o‘tmish voqeligining aniq tasviri, real fakt va hodisalarning keltirilishi, tarixiy shaxslarning xolis tasvirlanishi, muallifning voqelikka obyektiv yondashuvi jihatlari bilan o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalqi tarixi sohalarida katta o‘rin tutadi.

(Ushbu maqola Andijon davlat universitetining 2024 yil 7 fevralda tasdiqlangan jamoaviy ilmiy-innovatsion tadqiqotlarni rivojlantirishga qaratilgan № 04-12 loyihasi doirasida bajarilgan.)

Adabiyotlar:

1. Андижоний Мулло Холбек ибн Мулло Мусо. Алимқул жангномаси ва Ғурбатнома. / Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фонди. № Р-8816 инвентар рақамли қўлёзма. – 150 б.

2. Андижоний Мулло Холбек ибн Мусо. Ғурбатнома. / Андижон вилоят тарихи ва маданияти давлат музейи фонди. № 5064 инвентар рақамли қўлёзма. – 300 б.

3. *Уринбаев А., Епифанова Л.М.* Собрание восточных рукописей АН УзССР. VII том. – Ташкент: Изво “Наука” Узб., 1964. – 554 с.

4. Қори Зокир. Девон. /Андижон вилоят тарихи ва маданияти давлат музейи фонди. Инвентарь № 747. – 306 б.

5. *Шамсутдинов Р., Равшанов П.* Амирлашкар Алимқул тарихи. Алимқул жангномаси (парча). – Тошкент, 1997. – 65 б.

6. *Шамсутдинов Р., Равшанов П., Ҳакимов А.* Амир Лашкар Алимқул // Андижон тарихидан лавҳалар. – Андижон: “Andijon nashriyot-matbaa” ОАЖ, 2008 йил. – 260 б.

7. *Воҳидов Ш.* Қўқон хонлигида тарихнавислик. – Тошкент: Akademnashr, 2010. – 316 б.

8. *Шамсутдинов Р., Исҳоқов А.* Амир Лашкар Алимқул // Андижон тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 592 б.

9. *Мадғозиев И.* Мулло Холбек Андижонийнинг ҳаёти ва адабий мероси хусусида // Adabiy meros, 2024. – № 3. – Б. 93–98.

10. *Мушриф Мирзаолим.* Ансоб ус-салотин ва таворих ул-хавоқин. – Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1995. – 128 б.

11. *Худоёрхонзода.* Анжум ат-таворих. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014. – 348 б.

MULLO KHOLBEK ANDIJANI AND HIS EPIC "THE GURBATNOMA"

D.Z. Abdullayeva[1], I.A.Madgaziyev[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies. 2024. 5(81). 60-67.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Key words: 2nd half of the 19th century Andijan literary environment at the beginning of the 20th century, the work of Mullo Kholbek Andijani, a manuscript work, the work "Gurbatnoma", the traditions of the epic.

The purpose of the article talks about the life activities of the poet and historian Mullo Kholbek Andijani, who lived in Andijan in the early 20th century of the 2nd half of the 19th century, two of the "Gurbatnoma" epics he created: previously known and newly identified manuscript copies. The work, finished in a historical-autobiographical direction, tells about the historical environment in which the poet lived on the basis of real facts and generalizations. The content, structure, ideological and artistic features of this work, finished on the basis of the traditions of the Epic, are analyzed.

Material and methods The poet and historian Mullo Kholbek relied on archival materials, manuscripts in museum funds, documents relating to the period, press publications and other literature in his coverage of Andijanius ' life and work. In the coverage of the topic, such methods as analysis, synthesis, generalization, historical-comparative, augmentation were used.

Result Mullp Kholbek, Andijan poet and historic, an intellectual of his time, was an enlightener, living in Andijan in the early 20th Century II half of the 19th century. His only work, "The Gospel", survives. The epic "Gurbatnoma" reflects in itself the evolutionary refinement of the tradition of epic writing in our Uzbek written literature. The Epic has originality, originality in terms of the fact that historical reality is finished in a realistic style, the breadth of the scope of historical events, the observation of genre diversity in the work.

The work is made up of various lyrical genres, but it is worth noting the consistency of the epic narrative with the epic genre in terms of its mixture with the lyrical tone, the sequence and consistency of events, the exposition of political-social phenomena in a realistic style, the systematic continuation of the epic plot. The poem then continues with the verses of Mullo Kholbek in the content of hasbi hol. The fact that he remained in Russian El, in the hands of the soldats, that is, in detention (Asirman Rusiya kuffor elinda, Qolibman shabu ro'z sallot qo'linda), this event was recorded in the nahang year (the fish fly), in winter, in the "thousand two hundred and ninety-five" (1295 h.y., C.1878 ad), and nadomat writes that Russia took Fergana, and Eldan made Islam badarga. So, this epic of Mullo Kholbek Andijani was completed during his 10-year exile.

Summary The second half of the 19th century Turkestan life at the beginning of the 20th century was complicated and threatening, rich in incredibly complex political-social changes. Mullo Kholbek Andijani was also one of the men who fought for the people's land along with Amirlashkar Alimqul, who was passionate about the cause of freedom and enlightenment of his land. His work "The Gospel", which has come down to us, is a historical-autobiographical epic, in which the author describes in a realistic style the phenomena of chorism, the troubles of invasion, which he saw himself.

References:

1. Andijani, M. Kholbek ibn Muso. (19-20 c.c.) *Alimqul jangnomasi va G'urbatnoma* [Alimkul jangnomasi va Gurbatnoma]. Manuscript fund of the Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni. No. R-8816 inventory digital manuscript.

2. Andijani, M. Kholbek ibn Muso. (19-20 c.c.) *G'urbatnoma* [Gurbatnoma]. Fund of the State Museum of History and Culture of Andijan Region. No. 5064 inventory digitized manuscript.

3. Urinbaev, A., Yepifanova, L.M. (1964) *Sobranie vostochnyh rukopisej AN UzSSR* [Collection of oriental manuscripts of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR]. Tashkent: Fan.

4. Kari Zakir. (19-20 c.c.) *Devon* [Divan]. Fund of the State Museum of History and Culture of Andijan Re-

gion. No. 747 inventory digitized manuscript.

5. Shamsutdinov, R., Ravshanov, P. (1997) *Amir lashkar Alimqul tarixi* [History of Amir lashkar Alimkul]. Tashkent.

6. Shamsutdinov, R., Ravshanov, P., Khakimov A (2008) *Amir lashkar Alimqul* [Amir lashkar Alimkul]. Andijan: “Andijon nashriyot-matbaa” OAJ.

7. Vakhidov, Sh. (2010) *Qo‘qon xonligida tarixnavislik* [Historiography in the Kokan Khanate]. Tashkent: Akademnashr.

8. Shamsutdinov, R., Is’hakov, A. *Amir lashkar Alimqul* [Amir lashkar Alimkul]. Tashkent: Sharq.

9. Madgaziev, I. (ed) (2024) Mulla Holbek Andijoniyning hayoti va adabiy merosi xususida [About the life and literary heritage of Mulla Kholbek Andijani]. *Adabiy meros.* No 3. Pp. 93-98.

10. Mushrif, M. (1995) *Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin* [Ansob us-salotin va tavorix ul-xavokin]. Tashkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.

11. Khudoyorkhonzoda (2014). *Anjum at-tavorix* [Anjum at-tavorix]. Tashkent: Fanva texnologiya.

Mualliflar haqida ma’lumot:

ABDULLAYEVA Dildoraxon Zumratbekovna – filologiya fanlari doktori (DSc), Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: dildora.abd@mail.ru

MADG‘OZIYEV Iskandarshoh Abduvosit o‘g‘li – Andijon davlat universiteti O‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi. E-mail: madgaziev93@mail.ru